

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 3-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-3-1

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Babajanova Mexribonjon

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH 4-6

Ismailova Zumrad, Anarbaev Anvar, Vaxidov Umid

ISSIQXONADA HAVOSINI BUG'LATIB SOVUTISH TIZIMI UCHUN SHAMOLLITGICH QURILMANING RATSIONAL ELEKTR PARAMETRLARINI ANIQLASH 7-12

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SALJUQIY HUKMDORLARNING MAMLAKATDAGI ZIYOLILAR QATLAMIGA VA TA'LIMGA KO'RSATGAN E'TIBORI 13-16

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI HOKIMIYAT ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATI BILAN BILAN BOG'LIQ SIYOSIY EVFEMIZMLAR 17-19

YURIDIK FANLAR

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI MAKONDA BOLALARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA "XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT" TAMOIYILINING AMALIY IFODASI 20-25

Maxmudova Hurmatxon

FUQAROLARNING YURIDIK YORDAM OLIH HUQUQI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI 26-30

PEDAGOGIKA FANLARI

Xakimov Tulanboy

TARIX O'QITUVCHISINING NUTQ MADANIYATI VA HIKOYALASH MAHORATI — NARRATIV YONDASHUVNING ASOSI 31-33

Pulatova Lobar

LINGUOCULTUROLOGY AND MEDIA TEXT: THEIR INTERRELATION 34-37

SIYOSIY FANLAR

Umarova Nilufar

STRATEGIC RESILIENCE AND REGIONAL LEADERSHIP: UZBEKISTAN'S PATH THROUGH THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION 38-41

YURIDIK FANLAR

RAQAMLI MAKONDA BOLALARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA "XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT" TAMOIYILINING AMALIY IFODASI

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: gulnozashorasulova@gmail.com

Tel: +998 50 076 24 04

Toshkent viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Oxirgi o'n yillikda jamiyatning jadal raqamlashtirilishi bolalarning onlayn makonda ishtirok etish mexanizmlarini tubdan o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalar ta'lim, muloqot qilish va shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, profiling, algoritmik diskriminatsiya va kiberxavflar bilan bog'liq yangidan yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida inson qadri va bolalar manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Ushbu tezisda strategiyaning qonun ustuvorligi, boshqaruv samaradorligi hamda barqaror rivojlanish tamoyillari doirasida bolalarning raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish borasidagi huquqiy islohotlar tahlil qilinadi. BMT Bosh Assambleyasi, GDPR, COPPA va Children's Code kabi xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan qiyosiy yondashuv orqali O'zbekiston milliy qonunchiligini takomillashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar va sharenting amaliyoti zamonaviy muammolar sifatida tahlil qilinib, raqamli suverenitetni mustahkamlash va bolalar huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli himoya, bolalar huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar, "O'zbekiston-2030" strategiyasi, algoritmik diskriminatsiya, sharenting, raqamli suverenitet.

DIGITAL PROTECTION OF CHILDREN'S PERSONAL DATA: PRACTICAL IMPLEMENTATION OF THE "STATE IN SERVICE OF THE PEOPLE" PRINCIPLE IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN

Shorasulova Gulnoza

Master's student at Tashkent State University of Law

Tashkent region, Uzbekistan

Annotation. The rapid digitization of society has significantly changed the mechanisms of children's participation in the online environment. While digital technologies open wide opportunities for education, communication, and personal development, they simultaneously create risks related to personal data security, profiling, algorithmic discrimination, and cyber threats. Uzbekistan's "2030 Strategy" emphasizes the construction of a human-oriented state, where the protection of children's rights remains a crucial task. This article focuses on legal reforms and state policies ensuring the security of children's personal data in the digital environment within the framework of the Strategy's priority directions on governance, justice, and sustainable development. The comparative analysis includes international legal frameworks such as the UN Convention on the Rights of the Child, GDPR, COPPA, and the UK Children's Code to conceptualize Uzbekistan's national legislation development. Additionally, artificial intelligence-based services and sharenting practices are studied as contemporary challenges. The paper proposes optimized legal and institutional solutions to strengthen digital sovereignty and child protection.

Key words: digital protection, children's rights, personal data, Uzbekistan 2030 Strategy, AI discrimination, sharenting, data sovereignty.

O'zbekiston bugungi kunda har bir sohada innovatsion transformatsiya bosqichini boshidan kechirmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasining markazida inson qadri konsepsiyasi turadi. Raqamli texnologiyalar davlat xizmatlaridan foydalanishda fuqarolar orasida qulaylikni ta'minlashdan tashqari, ularning onlayn ta'lim platformalaridan

foydalanishlari, onlayn platformalar asosida kasbiy ta'limni rivojlantirish va ijtimoiy faolliklarini oshirishga ham xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida o'n sakkiz yoshdan kichik aholi (bolalar) qatlami jami aholi sonining taxminan 39% ini tashkil etadi. Hozir bolalar kiber makonda eng faol va eng himoyasiz toifadir. Shu tufayli ularning raqamli olamdagi huquqlarini himoya qilish va shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish har bir davlat uchun eng muhim vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda bolalarning onlayn platformalardagi ishtiroki sezilarli darajada ortib bormoqda. Ular mobil ilovalarda ro'yxatdan o'tmoqda, sun'iy intellekt algoritmlari ishtiroki ta'minlangan ta'lim platformalaridan foydalanmoqda, ijtimoiy tarmoqlarda shu va boshqa turdagi **raqamli izlar (digital footprint)** qoldirmoqda. Buning natijasida esa bolalar haqida to'plangan ma'lumotlar tizimlari kelajakda ularning o'qishi, ishga joylashishi, sog'lig'iga va hatto kreditga layoqatiga ta'sir qilishi ehtimoli kuchaymoqda. Bolalarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanib jiddiy kiber jinoyatlar sodir etilishi xavfi ham yo'q emas.

Bundan tashqari sharenting fenomeni ota-onalar tomonidan o'z farzandlariga tegishli ma'lumotlarning ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi natijasida bolalarning shaxsiy hayoti keng ommaga oshkor bo'lishiga olib kelmoqda. Ba'zi davlatlarda bu hattoki "kelajakdagi shaxsiy hayot huquqini buzish" sifatida baholanmoqda. Bu esa nafaqat huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi, balki bolalarning shaxsiy hayoti va psixologiyasiga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, algoritmik diskriminatsiya bolalarning yoshini xavf omili sifatida noto'g'ri talqin qilishi mumkin.

BMT ning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (UNCRC) 16-moddasida bolalarning shaxsiy hayoti maxfiyligiga bo'lgan huquqlari mustahkamlangan bo'lib [1;4-5-b.], davlatlar bolalarning ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga majburdirlar. Yevropa ittifoqining GDPR tizimida esa bolalarga tegishli ma'lumotlarni qayta ishlashda maxsus himoya choralari qo'llashni talab qilib qo'ygan. AQSh ning COPPA qonuniga ko'ra 13 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilarning ma'lumotlarini yig'ish qat'iy tartibga solingan [4;3-4-b]. Buyuk Britaniyaning Children's Code ga asosan raqamli xizmatlar tomonidan bolalar manfaati birinchi o'ringa qo'yilishi kerak.

Ushbu xalqaro me'yorlar O'zbekistonda boshlangan qonunchilik islohotlariga nihoyatda uyg'un. Ayniqsa, taraqqiyot strategiyasining IV-ustuvor yo'nalishi - qonun ustuvorligini ta'minlash va xizmatidagi davlat boshqaruvini kuchaytirish [6;24-29-b.] doirasida bolalar ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bolalarning shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash borasidagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslanadi. Mazkur prinsip "O'zbekiston-2030" strategiyasining bosh maqsadlaridan biri bo'lib, u davlat boshqaruvini xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi tizimga aylantirishni ko'zlaydi. Ushbu strategiya doirasida IV-ustuvor yo'nalish Qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat xizmatlarining ochiqligi, shu bilan birga fuqarolar huquqlarining kafolatlanishi kabi vazifalarni belgilaydi. Ushbu vazifalarni bajarish va bevosita bolalarning raqamli makondagi xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar orqali shakllanib kelmoqda.

Xususan, 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonun mamlakatimizda bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash bo'yicha asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonunda shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi

tushunchasi, ulardan foydalanish bo'yicha rozilik olish tamoyili va ularni qayta ishlashda minimallik prinsipi, bundan tashqari maxsus toifadagi ma'lumotlar uchun alohida himoya choralari belgilanishi kabi shu va boshqa masalalar aks etgan [8;4-5-b.]. Bu qonun Yevropa Ittifoqining GDPR doktrinasidagi ayrim muhim jihatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, biroq qonunda bolalar alohida subyekt sifatida ko'rsatilmagan. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonda qonunchilikning bolalarga nisbatan vujudga kelishi mumkin bo'lgan kiberxavflariga nisbatan moslashuvini cheklaydi.

Bugungi kunda PF-158 ga ko'ra ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat xizmatlarida ma'lumotlar hajmining oshishi davlat siyosati darajasiga chiqmoqda. Qolaversa, "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 60-sonli Prezident farmoni ham "Inson qadri uchun" tamoyiliga amal qilgan holda bir qancha sohalarndi transformatsiya qilishni ko'zda tutadi [7;1-2-b.]. Ushbu hujjatlar raqamli ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha asosiy strategik zamindir.

Bolalarning raqamli olamdagi ma'lumotlarini himoya qilish tartibga solish bo'yicha bir qancha boshqa normativ bazalar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 31-moddasiga asosan har bir inson shaxsiy hayot daxlsizligi, o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga ega [2;5-6-b.]. Konstitutsiyamizda aynan "bola" subyekt sifatida keltirilmagan bo'lsa-da, ammo mazmunan "har bir inson" birikmasining ichiga kirib ketadi. Shundan kelib chiqib, biz bosh qonunimiz bolalarning ma'lumotlarini himoya qilish xizmat qiladigan eng asosiy mexanizm deb ayta olamiz. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda esa masofaviy ta'lim masalalari, onlayn ta'limda axborot xavfsizligi masalalari [9;7-b.], "OAV to'g'risida" gi qonunda kontentlar bilan bog'liq masalalar yoritilgan ammo ular alohida subyekt sifatida keltirilmagan, sharenting fenomeniga huquqiy ta'rif berilmagan. Yuqoridagilardan tashqari boshqa bir qancha tegishli qonun va qonunosti hujjatlariga o'zgartirish kiritib, bolalar va o'smirlar uchun raqamli xavfsizlikni ta'minlash yoki ularga oid barcha asosiy jihatlarni o'z ichiga qamrab olgan yangi "Bolalarning raqamli xavfsizligi to'g'risida" gi qonunni ishlab chiqish Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishga yana yordam beradi.

Qonunchilikdagi bo'shliq nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ayrim amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, sharenting fenomeni ommalashib borishi natijasida, ota-onalar tomonidan o'z farzandlarining foto va videolarini turli xil onlayn platformalarda muntazam ravishda joylab borilishi bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini kuchli xavf ostiga qo'yimoqda. Bundan tashqari mana shu kontentlar boshqa notanish insonlar tomonidan ota-onaning rozilgisiz boshqa profiler nomi ostida joylashtirilishi holatlari ham juda ko'p kuzatilmoqda. Data profiling ham bugungi kundagi eng katta muammolardan biridir. Chunki u maxfiylik va shaxsiy hayotga aralashish (privacy invasion) ga olib keladi. Bu ma'lumotlar bola rozilgisiz yoki ota-ona nazoratisiz tahlil qilinsa, UNICEF, GDPR (Yevropa Ittifoqi) va O'zbekistonning "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablari buziladi. Masalan, bola YouTube Kids'da ko'rgan videolari asosida uning "shaxsiy profili" tuzilib, reklama yoki content shaxsiylashtirilishi bu maxfiylikning buzilishidir. Bu esa o'z navbatida bolaning algoritmik diskriminatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. Profiling natijasida tizimlar bolani "ma'lum toifa" ga ajratadi: "faol bola", "kam o'quvchi bola" "ko'p o'yin o'ynovchi bola" va hokazolar. Agar bu ma'lumotlar noto'g'ri yoki bir tomonlama bo'lsa, bola diskriminatsiyaga uchrashi mumkin. Onlayn ta'lim platformasi bola faol emas deb hisoblab, unga kamroq topshiriqlar yoki past darajadagi materiallar berishi mumkin. Bu esa o'z navbatida bolaning

rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Data profiling jarayonida rozilik va nazorat masalasi bo'yicha ham ayrim muammolar mavjud. Bolalar ko'pincha o'z ma'lumotlari tahlil qilinayotganini tushunmaydi, shu tufayli agar shaffoflik (transparency) taminlanmasa, bu holat bolaning ma'lumot ustidan nazorat huquqini buzadi. Bundan tijoriy maqsadlarda foydalanish holatlari hozirda juda keng tarqalgan. Misol uchun, ba'zi platformalar profiling ma'lumotlarini reklama, marketing yoki psixologik tahlil uchun ishlatadi. Tabiiyki, bunday vaziyatlarda bolalar manipulyativ reklamalarga duch kelishadi va tizim uning tavsiyalarini o'yinchoq reklamalari bilan to'ldiradi. O'zbekiston qonunchiligida hozircha bolalarga oid raqamli profiling uchun alohida normalar aniq belgilanmagan. Ushbu vaziyatda javobgarlik masalasi ham tartibga solinmagan. Shu bilan birga, TikTok, YouTube Kids kabi platformalardagi yoshni aniqlash mexanizmlaridagi zaifliklar va qonunchilikda onboarding tekshiruvi taribi belgilanmaganligi, bolalarga nisbatan amalga oshirilayotgan kiberbulling (tahqirlash, haqorat qilish, yolg'on ma'lumot tarqatish, izolyatsiya qilish va boshqalar) va u uchun maxsus javobgarlik normasi yo'qligi, bolalarning ma'lumotlari onlayn platformalarda ko'proq inson qadri sifatida emas, balki iqtisodiy aktiv sifatida ko'rilishi kabi bir qator muammolar borligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Raqamli makonda bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro huquqning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni huquqiy tartibga solish uchun chet el qonunchiligi ayrim tajribalarini o'z qonunchiligimizga tatbiq qilishimiz yaxshi himoya choralari shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi 1994-yildan boshlab BMT ning "Bola huquqlari to'g'risida" gi konvensiyasi (UNCRC) ga a'zo bo'lib, undagi majburiyatlarni milliy qonunchilikda aks ettirishga intiladi. Biroq internet va raqamli texnologiyalar soat sayin rivojlanib, o'zgarib borayotganligi tufayli milliy tizimni ilg'or xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish biroz qiyinchilik tug'dirsa-da, amalda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida xalqaro hujjatlar va chet el qonunchligidan ayrim normalar tahlilini ko'rib chiqamiz:

❖ UNCRC ning 16-moddasiga ko'ra davlatlar o'z hududida bolaning shaxsiy hayoti, oilaviy siri va obro'sini himoya qilinishini ta'minlashi, axborot texnologiyalari orqali shaxsiy hayotga asossiz arashuvni cheklash va bolaga ta'sir qiluvchi har qanday ma'lumot yig'ish jarayonini nazorat qilinishini ta'minlashlari lozim [1;4-5-b.]. Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning daxlsizlik kafolatlari mavjud, lekin aynan raqamli makon uchun maxsus me'yorlar hali to'liq shakllanmagan.

❖ Yevropa Ittifoqining "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidasi" (GDPR) da bolalarning ma'lumotlari "maxsus himoya obyekti" sifatida belgilanadi, 13 yoshgacha ulardan foydalanish uchun ota-ona yoki vasiy roziligini olish shart [3;33-35-b.], privacy by design & by default tamoyillari majburiy qilib qo'yildi (ya'ni ma'lumotlarni himoya qilish choralari loyihaning dastlabki bosqichidan boshlab kiritish kerak, u tizimning ajralmas qismi bo'lishi lozim), data profilingda kelib chiqishi mumkin bo'lgan zarar ehtimolini baholash majburiy bosqich qilib qo'yildi [3;160-163-b.]. Shu tufayli barcha platformalar, shu jumladan, TikTok 2021-yildan boshlab Yevropada 13 yoshdan kichiklar uchun hisobni xususiy (private) rejimga o'tkazdi, kommentariyalarni cheklangan auditoriyaga yo'naltirdi hamda shaxsiylashtirilgan reklamalarni o'chirib qo'ydi. Mazkur doktrina shaxsiy ma'lumotlarga doir ko'plab qoidalarni o'z ichiga oladi va O'zbekiston Qonunchiligining GDPR ga moslashuvi yuridik baza uchun kuchli tayanch yaratadi.

❖ AQShning Children's Online Privacy Protection Act (COPPA, 1998) ida ham 13 yoshgacha bo'lganlar uchun qat'iy qoidalar belgilangan. Ushbu aktga ko'ra "verified parental consent", ya'ni bolalarning onlayn faoliyati yoki ma'lumotlarini yig'ishdan oldin ota-onaning ruxsati qonuniy tarzda tekshiriladi [4;5-10-b]. Shartlarni buzganlik uchun katta miqdorda jarimalar to'lanadi. YouTube platformasi va Google 2019-yilda COPPA qoidalarini buzganligi uchun 170 mln dollar jarimaga tortilgan. Shu voqeadan so'ng YouTube Kids algoritmlari qayta ishlab chiqilgan. Bu model ham O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

❖ Buyuk Britaniyaning Children's Code mexanizmida ham O'zbekiston qonunchiligi uchun olinishi mumkin bo'lgan bir qancha jihatlari mavjud. Ushbu qonunga asosan bolalar uchun yaratiladigan platformalarga bir qancha talablar qo'yilgan. Masalan, ularda avtomatik geolokatsiya o'chirilgan bo'lishi kerak, nazoratsiz kontaktlar bilan aloqaga kirishish ham cheklanadi, profil ochiq (public) bo'lmasligi lozim, raqamli kuzatuv esa minimallashtirilgan [5;25-32-b.]. Ushbu qoidalarga tayanib, Google Classroom bolalar uchun xavfsizlik siyosatini yaratdi, o'qituvchi nazorat panelini kuchaytirdi.

Hozirgi zamonda bolalarning raqamli makondagi xavfsizligini ta'minlash masalasi qanchalik dolzarb ekanligini bir qancha olimlar tomonidan yozilgan tadqiqot ishlari orqali tushunish mumkin. Jumladan, ushbu yo'nalishda London Iqtisodiyot maktabi olimasi Sonia Livingstone bir qancha izlanishlar olib borgan. U bolalarning onlayn muhitdagi shaxsiy ma'lumotlari qanday usullarda to'planayotgani, qayta ishlanayotgani va tijorat maqsadlarida foydalanishini tahlil qiladi. Tadqiqotda "datafication" – ya'ni bolaning hayoti raqamli ma'lumotga aylanishi jarayoni asosiy tahdid sifatida ko'rsatiladi [11;7-12-b.]. Livingstone shuningdek, ota-ona, platformalar va davlat o'rtasida huquqiy mas'uliyat chegaralarini aniqlashtiradi [11;15-28-b.]. U o'zining yana bir tadqiqotida bolalar maxfiyligini turli yurisdiksiyalarda, xususan AQSh va Buyuk Britaniya huquqiy va ijtimoiy yondashuvlar orqali solishtiradi. GDPR, COPPA va Age-Appropriate Design Code qonunlarini tasdiqlab, bolalar uchun "privacy by design" mexanizmlarining samaradorligini baholaydi [12;1107-1129]. Anthony Owen & Dario Lam tomonidan yozilgan maqola sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlarida (AI-learning platforms) bolalar ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish bilan bog'liq axloqiy va huquqiy muammolarni o'rganadi. Mualliflar AI profiling, ma'lumot oqimi, diskriminatsiya va ota-ona roziligi masalalarini ko'tarib, siyosiy va texnik yechimlarni taklif etadi [13;3-19-b.]. Harshi Gautam va Milind Singh esa o'z maqolasida bolalarning maxfiylik huquqini xalqaro huquq, konstitutsion kafolatlar va AI rivojlanishi kontekstida tahlil qiladi. Ular "child's consent maturity model" tushunchasini ilgari surib, bolaning yoshi hamda ong darajasiga qarab rozilik jarayonini huquqiy lashtirishni taklif etadilar [14;9-31-b.].

Barcha tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarning raqamli makondagi huquqlari – bu faqat maxfiylik masalasi emas, balki inson qadri, raqamli suverenitet va ijtimoiy adolat masalasi hamdir. Ayni damda O'zbekiston tajribasi strategik yo'lning boshida turibdi. Shu bois, xalqaro standartlar va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan yondashuvlar: bolalarga oid maxsus qonunchilik va SI regulatsiyasi, ma'lumotlarni minimal yig'ish va algoritmik audit, ota-ona, platforma va davlatning birgalikdagi mas'uliyatini shakllantirish, raqamli savodxonlikni oshirish asosida bolalarning onlayn xavfsizligini ta'minlash ko'zda tutiladi. O'zbekiston uchun bu yo'nalishdagi islohotlar milliy raqamli suverenitetni mustahkamlash, xalqaro huquqiy maydonda o'z ovozigacha ega bo'lish kalitidir. O'zbekiston-2030" strategiyasi esa inson qadri va

adolat tamoyillarini taraqqiyotning asosiy tayanchi sifatida belgilab, bolalarning xavfsiz raqamli kelajagini ta'minlashni milliy vazifaga aylantirdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Convention on the Rights of the Child Adopted and opened for signature, ratification and accession by General Assembly resolution 44/25 of 20 - November 1989.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. General Data Protection Regulation - REGULATION (EU) 2016/679 OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL of 27 April 2016.
4. CHILDREN'S ONLINE PRIVACY PROTECTION RULE (COPPA RULE) - 1998.
5. Age-Appropriate Design Code (Children's Code) - 2021.
6. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son.
7. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son; 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son.
8. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2019-y., 03/19/547/3363-son; 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son.
9. "Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 05.11.2024-y., 03/24/990/0892-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son; 24.10.2025-y., 03/25/1091/0969-son.
10. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 15.01.2007 yildagi O'RQ-78-son - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 3-son, 20-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.
11. Sonia Livingstone – "Children's Data and Privacy Online: Evidence Review" - 2019.
12. Livingstone S. & Byrne J. – "Children's Privacy in the Digital Age: US and UK Perspectives" - 2024.
13. Anthony Owen & Dario Lam – "Protecting Children's Data Privacy in AI-Enabled Early Education" - 2025.
14. SSRN Paper – "The Right to Privacy of Children in the Digital Era" - 2024.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

ISBN-978-9910-8337-3-1

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.